

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyni ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globalashuv jarayonlarining O'zbekistondagi mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari.....	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari.....	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'naviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati.....	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi	218



UO'K: 65.011.56

ONGNI BOSHQARISH FALSAFASI

ФИЛОСОФИЯ КОНТРОЛЯ РАЗУМА

MIND MANAGEMENT PHILOSOPHY

Karimov Bozarqul Xuddayberdiyevich 

Buxoro davlat texnika universiteti "Ijtimoiy fanlar va jismoni madaniyat" kafedrası dotsenti

Annatotsiya

Ushbu maqolada Ongni boshqarish orqali odamni har qanday xatti-harakatga undash mumkinligi hamda Psixolog va sotsiolog olimlarning ta'kidlashicha, manipulyatsiya - psixologik ta'sir turlaridan biri hisoblanib, undan kishini ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishga bilvosita undash orqali bir tomonlama yutuqqa erishish maqsadida foydalaniladi. Manipulyatsiya lotinchadan olingan bo'lib, qo'l harakati degan ma'noni bildirishi haqida fikr yuritilgan. Ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida aytib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается возможность мотивации человека к выполнению какого-либо поведения посредством контроля над сознанием, а психологи и социологи утверждают, что манипуляция - это тип психологического воздействия, который используется для достижения односторонней выгоды путем косвенного мотивирования человека к выполнению определенных действий. Считается, что слово «манипуляция» произошло от латинского слова и означает «движение руки». Были упомянуты реформы, реализуемые в социальной сфере.

Abstract

This article discusses the possibility of motivating a person to perform any action through mind control, and psychologists and sociologists argue that manipulation is a type of psychological influence that is used to achieve unilateral gain by indirectly encouraging a person to perform certain actions. The word manipulation comes from Latin and means hand movement. The reforms being implemented in the social sphere are discussed.

Kalit so'z: Ong, ongni boshqarish falsafasi, Suqrot, Aristotel, Platon, Manipulyatsiya, Ommaviy madaniyat, adolatli fuqarolik jamiyati.

Ключевые слова: Сознание, философия контроля над разумом, Сократ, Аристотель, Платон, Манипулирование, Массовая культура, просто гражданское общество.

Key words: Ong, ongni boshqarish falsafasi, Sokrot, Aristotel, Platon, Manipulation, Ommaviy madaniyat, adolatli fukarolik jamiyati.

KIRISH

Yurtimizda o'zlarining g'ayriislomiy g'oyalarini tarqatishga harakat qilgan kimsalar g'arazli niyatlarini, ya'ni yoshlarni chalg'itish, ular yordamida mamlakatni o'z taraqqiyot yo'lidan chetlatib yuborish maqsadida inson ongi va qalbini egallashda fikriy kurash yo'lini tanlab, 1989 yildan buyon "al-Vay", ya'ni "Ong" nomli oylik jurnalni turli tillarda chiqarib kelayotganliklari ham bejiz emas.

Sharqona tafakkur namunasi bo'lgan "Inson ongi va qalbi uchun kurash" masalasi bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda. Inson ongi orqali uning qalbini egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi va turli g'oyalarni sinash maydoniga – mafkuraviy poligonga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham ong masalasini har tomonlama o'rganish, unga yoshlar e'tiborini qaratish bugungi ta'lim-tarbiyaning muhim vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Qadimgi zamonlardayoq ong, tafakkur, ruh haqidagi qarashlar mashhur faylasuflar Suqrot, Aristotel, Platon qarashlarida shakllana boshlagan. Demak, birlamchi psixologik qarashlar falsafa negizida paydo bo'lgan edi. Allomalar ular asarlaridan ta'sirlanib, insonning ruhiyatiga ham e'tibor qaratganlar. Shuning uchun ham psixologiyani haqli ravishda falsafa negizida vujudga kelgan fanlar qatoriga qo'shish mumkin. Falsafa va psixologiyaning bir-birini to'ldirishini ong va ruhiyat masalasini har tomonlama yoritishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

FALSAFA

Shu bilan birga, yana bir e'tiborli jihati shuki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlab topishda falsafa va psixologiyaning o'zaro hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu esa yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi dolzarb bo'lib turgan tarixiy davrda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ongni boshqarish orqali odamni har qanday xatti-harakatga undash mumkin. Psixolog va sotsiolog olimlarning ta'kidlashicha, manipulyatsiya - psixologik ta'sir turlaridan biri hisoblanib, undan kishini ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishga bilvosita undash orqali bir tomonlama yutuqqa erishish maqsadida foydalaniladi. Manipulyatsiya lotinchadan olingan bo'lib, qo'l harakati degan ma'noni bildiradi. Shu bilan birga manipulyatsiya - qo'l mashqi, shu jumladan, qo'l mahoratiga tayangan fokus namoyish qilish; maxinatsiya, aldov, tovlamachilik, qalloblik orqali g'arazli maqsadga erishish; odamda ma'lum motivatsion holatlarning (hissiyotlar, stereotiplar) faollashuviga olib keladigan kommunikatsion ta'sir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hozirga paytga kelib axborot tizimi butun jahonni qamrab oldi. Internet, uyali telefon aloqasi, radio va televideniye umumjahon miqyosida keng tarqaldi. Xalqlar, mintaqalar, qitalararo aloqalar jadallashdi. Insoniyatning muvaffaqiyatlari ham, kulfatlari ham global xarakter kasb etdi.

Taassufki, madaniy gegemoniya o'rnatish o'zga hududlarni o'z ta'sir doirasiga olish, inson ongini boshqarishning keng tarqalgan texnologiyasiga aylanyapti. "Ongni boshqarish" ("manipulyatsiya soznaniyem") atamasiga olimlar quyidagicha ta'rif beradi: "Manipulyatsiya – insonlarga ta'sir ko'rsatish harakati bo'lib, ularni mohirona boshqarish, xususan, ularga ob'ekt sifatida qarab, bepisand munosabatda bo'lish, zimdan boshqaruv yoki ta'sir etishdir".

Manipulyatsiya insonlar fe'l-atvorini boshqarishni, aniqrog'i, ommaning fikrlari va intilishlarini, ularning kayfiyati va ruhiy holatini programmashtirishni nazarda tutadi. Ongni boshqarish muammosiga bagishlangan ilk asarlardan biri nemis olimi Gerbert Frankening 1964 yilda chop etilgan "Manipulyatsiya qilinayotgan inson" kitobidir. Bu asarida olim mazkur hodisaga quyidagicha ta'rif beradi: "Ko'pincha ongni boshqarish deganda yashirin holda amalga oshiriladigan ruhiy ta'sirni tushunish kerak va demak, bu ta'sir kimga yo'naltirilgan bo'lsa, o'sha shaxslarga ziyon etkazishga xizmat qiladi". Manipulyatsiya - zo'ravonlik emas, u insonda biror narsaga havas tug'diruvchi vasvasa, uni yo'ldan ozdirish usulidir.

Manipulyatsiyaning xatarli jihati shundaki, u ichki parokandalik, shaxs yaxlitligining buzilishi, uning tashqi ta'sirga berilib ketishiga sabab bo'ladi. Amerikalik psixolog R.Chaldini manipulyatsiyaning bir necha turlarini ajratib ko'rsatadi: yordam so'rash; sotuvchining, reklamanning xaridorga ta'siri; siyosiy targ'ibot; bolalarni tarbiyalash va xokazo. Uning fikricha, turli xil fondlar uchun mablag' yig'uvchilar, ko'chada savdo qiluvchilar, ishbiarmonlar, biznesmenlar, savdo agentlari, reklama xodimlari xam o'z faoliyatida manipulyatsiyadan keng foydalanadi.

Demak, manipulyatsiya - bu kishilar ongini engil-yelpi g'oyalar, fikrlar va karashlar bilan atayin noto'g'ri shakllantirish hamda shu tariqa insonni ma'no-mazmunsiz hayotga yo'naltirishdan iborat. Bu xizmatni amalga oshiruvchi kishi manipulyator deb ataladi. Manipulyatorga quyidagilar xos: 1) manipulyator o'z sohasining etuk mutaxassislaridan biri sifatida g'araz niyatli siyosiy kuchlarga moddiy manfaat ko'rish uchun xizmat qiladi; 2) manipulyator belgilangan kishi yoki muayyan guruhni manipulyatsiya qilish, ya'ni to'g'ri yo'ldan chalg'itish uchun turli vositalardan, zamonaviy texnika imkoniyatlaridan unumli foydalanadi; 3) manipulyator o'z ishida kishilarning, ayniqsa, yoshlarning qiziqish, intilishlari va xohish-istaklarini hisobga olish usuliga qat'iy amal qiladi; 4) manipulyator o'ziga irodasi mo'rt, fikri sayoz va faqat bir kunlik xayot bilan yashovchi yoshlar orasidan munosib "shogird" ni voyaga etkazadi hamda butun jarayonni uning vositasida boshqaradi.

G'arbda odamlar ongining manipulyatsiya qilinayotgani haqida ko'p yozishgan. Bu "Ommaviy madaniyat"ni ilk ta'siridan boshlangan. Bu xaqda ispan faylasufi Ortega Gasetg: "Ko'pchilik odamlarda fikr yo'q. Xalq hech qachon, hech qanday fikrga ega bo'lmagan. Chunki u borliqni nazariy anglay olmaydi. Bu esa uning to'g'ri qarorlar qabul qilishiga halaqit beradi. Shunday ekan, fikr odamlarning miyasiga tashqaridan, xuddi mashinaga moyini siqib kirgizgandek, bosim bilan kirgizish kerak", - degan edi.

Olim jamiyatga fikrni bosim ostida, zo'rlab singdirish yaxshi emasligini biladi. "Biroq, - deydi u, - odamlar manipulyatsiya qilinmasa, jamiyatda anarxiya paydo bo'ladi. Bu esa jamiyatni inqirozga olib keladi. Jamiyat nuraydi, emiriladi". "Ommaviy odam, - deydi u yana, - o'ylay olmaydi, ammo

uning fikrlari mantiq qobig'iga o'ralgan instinklardan boshqa narsa emas. Shunday ekan, ijtimoiy fikrni shakllantirish - bu siyosiy tarixning umumtortilishi qonunidir".

Sotsiolog olim, professor Mansur Bekmurodov shunday deydi: "Muayyan g'oyalarni ong osti tuzilmalariga singdirish mexanizmidan muxoliflar keng foydalanmoqdalar. O'z-o'zidan, tabiiy ravishda kechuvchi istalgan odam yoki hayvonda biror-bir narsa yoki hodisaga nisbatan maylni yuzaga keltiruvchi psixologik mexanizmning ishlash tartibi o'ta oddiy bo'lib, bir jins, bir xil mazmun yoxud shakldagi narsa yoki informatsiyani ketma-ket uch martadan ko'p ko'rsatish va eshittirish avvaldan kutilgan samarali natijalarni beradi.

Shaxsga ko'rsatilgan maqsadli ta'sir esa ong osti tuzilmalarida muayyan vaqt mobaynida to'plangan ma'lumotlarni tasdiqlash yoki inkor etish jarayonlarining boshlanishiga, boshlanganda ham o'ziga xos avtomatik tarzda, ya'ni inson irodasidan tashqari holda boshlanib ketishiga asos bo'ladi. Bu erda motiv, ya'ni nimaga inson ko'proq moyil bo'lgani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Inson, ayniqsa o'zi xohlagan narsaning tasdig'iga erishishga intiladi. Shu boisdan muxoliflarimiz qaysi ma'lumotlarni berishdan ham ko'ra ularni qanday tarzda etkazish, asosan, suhbatdoshda xohish, mayl uyg'otishga katta e'tibor qaratadi.

Ayniqsa, manipulyatsiyaning ta'siri va oqibatlarida soxta diniy tashkilotlar, aqidaparast guruhlar faoliyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda avvalo, odamlarning ongiga ta'sir etib, ularning xatti-harakati (individual jismoniy hayotni boshqarish, tobelik va bo'ysunuvchanlikni paydo qilish), olinayotgan ma'lumot haqiqiy holatini yashirish yoki voqelikni buzib ko'rsatish, tanqidiy ma'lumotlarni taqiqlash, muayyan g'oyani majburan singdirish, voqelikdagi voqea-hodisalarni "yaxshi" va "yomon"ga ajratish, hissiyotlarni (shaxs hissiyotlarini zaiflashtirish, unga aybdorlik tuyg'usini singdirish, uni gunoh, kamchilik va xatolarni rasman tan olishga undash, undagi qo'rquv hissidan foydalanish) nazorat etish orqali har qanday vazifa yoki topshiriqni bajaradigan, muayyan g'oya va mafkuraga tobe etilgan, o'zligidan mahrum bo'lgan kimsalar shakllantiriladi. Bunga qarshi biz hushyor va ogoh bo'lishimiz lozim.

"Ommaviy madaniyat"ning yovuzligi shundaki, u odamzodning fikrlashiga tish-tirnog'i bilan qarshi. To'g'ri, bir qaraganda "ommaviy madaniyat" hurfiylik, inson erki tarafdoridek ko'rinadi, lekin barcha "ilmu amali" ning negiziga e'tibor berilsa, insonning fikrlashiga, tafakkur qilishiga zid ekani ayon bo'ladi.

Xo'sh bundan ko'zlangan maqsad nima?

Fikrsizlik oqibatida tobe bo'lish – kuch bilan bo'ysundirilgandan ko'ra ming chandon fojiali. Tarix ko'p bor guvoh bo'lgan: qurol-aslaha vositasida bo'ysundirilgan xalqlar ko'p urushlar, hatto asrlar o'tsa-da, baribir ozodlikka erishishgan. Chunki qurol-aslaha milliy tafakkurni, qalbni zabt eta olmagan, odamlar ongida ozodlikka erishishdek ulug' orzu yashayvergan! Ammo xalqning ongi mahv etilsa-chi? Bunday xalq milliy ozodlik haqida o'ylashga qodir bo'lmasligi, bunga qurbi etmasligi kunday ravshan. Millat uchun, xalq uchun bundan og'irroq fojia bormi? Milliy ozodlikni unutish millatning izsiz yo'qolishi emasmi?

Mintaqaviy mojarolar, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, terrorizm, narkoagressiya, qurol-aslaha savdosi uchun poligon bo'libgina qolmay, psixologik tahlika va ma'naviy buzg'unchilikka ham asos bo'ldi. Mintaqaviy mojarolardan "kuch-quvvat" olgan diniy ekstremizm va terrorizm jahon miqyosiga chiqib, o'zining razil qiyofasini endi yashirmay qo'ydi. Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm mafkurasi ma'naviy sohadagi eng katta xavfga aylandi.

Tarixga nazar tashlasak, o'zga mamlakatlarni bosib olish, boshqa xalqlarni o'ziga tobe qilib olish qasdidan turli xil mafkuraviy va psixologik vositalar ishga solinganligiga ko'plab dalillar topishimiz mumkin. Qadim-qadim zamonlardayoq tajovuz nishoni bo'lgan xalqning ko'ngliga g'ulg'ula solish, raqib jangchilarini ruhiy "qurolsizlantirish" maqsadida psixologik urush vositalaridan foydalanilgan.

Milodiy eradan avvalgi VI asrda yashagan xitoylik faylasuf va harbiy sarkarda Sun Szi raqib ruhini sindirishning quyidagi usullarini tavsiya etgan edi:

1. Raqibingiz mamlakatida nimaiki yaxshi va xosiyatli narsalar bor - barini buzing;
2. G'animning ko'zga ko'ringan arboblarni turli jinoyatlarga jalb eting;
3. Muxolifingiz rahbarlari nufuziga putur etkazing va kerak paytda jamoat oldida ularni obro'sizlantiring;
4. Bunday maqsadlar yo'lida eng qabih va razil odamlar bilan til biriktiring;
5. Sizga dushman bo'lgan mamlakat fuqarolari orasida nizo uyg'oting va janjal chiqaring;
6. Yoshlarni katta avlodga qarshi gij-gijlang;
7. Hukumat ishiga har qanday vositalar bilan xalal bering;

FALSAFA

8. Raqib jangchilari me'yorida ta'minlanishiga va ular orasida tartib-intizom bo'lishiga hamma usullar bilan to'g'anoq bo'ling;

9. Qo'shiqlar va musiqa bilan yov qo'shinining irodasini buking;

10. Dushmaningiz an'alarini qadrsizlantirish va ularning o'z xudolariga bo'lgan iymon-e'tiqodlarini qo'porish uchun hamma imkoniyatlarni ishga soling;

11. Buzg'unchilik ishini qiyomiga etkazish uchun suyuqoyoq, engiltabiat fohisha ayollarni safarbar eting;

12. Yolg'on-yashiq va'dalarga saxiy bo'ling;

13. O'z maqsadingizga erishish uchun aqchani ham, va'dani ham ayamang.

Bunday "maslahat"larni eshitgan sof vijdonli har bir odamning badaniga titroq kirishi, har bir oqil odam bu borada qanday katta xavf-xatar borligini anglashi qiyin emas. Bu taxlit tavsiyalar tig'i ma'naviyatga qarshi qaratilganligi, inson ongi, ruhi, shuuriga ta'sir qilishga yo'naltirilganligini sezish oson.

Sun Szidan keyin o'tgan davrlarda yanada dahshatli, ammo bundan ham nozik ruhiy qurollar, mafkuraviy vositalar o'ylab topildi va ishga solindi. Yana bir toifa borki, ular ma'naviy buzuvchilik va axloqsizlikni yangilik va erkinlik deb talqin va targ'ib qilmoqchi bo'ladilar.

Ma'lum muddat ilgari, aytaylik, yuz-ikki yuz yillar oldin boshqa xalqlar hayotiga, ularning ruhiyati va qadriyatiga chetdan ta'sir o'tkazish oson bo'lmagan. Asrlar, ming yillar mobaynida o'z urf-odatlarini, an'ana va marosimlari asosida yashab kelgan elat va millatlar chet el rusumi - modasini osonlikcha qabul qilmas edi. Yangilikka qarshilik anchayin jiddiy bo'lardi.

XX asr ijtimoiy ongni boshqarish borasida burilish asri bo'ldi. Millionlab kishilarni bir vaqtning o'zida jadal targ'ibot bilan qamrab olish imkonini beradigan yangi texnologik vositalar paydo bo'ldi. Ilgari tasavvur etib bo'lmaydigan ko'lamlarda siyosiy tomoshalar qo'yishga qodir rejissyor - tashkilotlar bo'y ko'rsatdi.

Ba'zan beozordek ko'ringan reklama ham madaniy o'zakni qo'porishning kuchli vositasiga aylanayotganini e'tiborga oladigan bo'lsak, "g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish zarurligi" haqidagi fikrning ahamiyatini yanada chuqurroq anglaymiz. Shunday ekan, o'zligimizdan mahrum qilishga intilishlarning payini qirqishimiz, ongimizni boshqarishga urinishlarga yo'l bermasligimiz kerak.

Bashariyat taraqqiyoti tufayli inson ongini boshqarish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari cheksiz kengaydi. Bunday texnologiyalarni samarali qo'llash bo'yicha qimmatli "maslahatlar" bitilgan nazariyalar ham ko'paydi. Mazkur nazariyalarga xos umumiy xususiyat shundan iboratki, uning mualliflari ongni boshqarish uchun, avvalo, insonlarni to'daga, olomonga aylantirish zarurligini, shundan keyin ularni istalgan kuyga solish mumkinligini ilmiy «asoslab» berishga harakat qiladi.

Fransuz faylasufi Gi Deborning "Tomosha jamiyati" (1967 y.) asarida insonlarni to'daga aylantirish maqsadida o'y-xayoldan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Uning fikricha, ongni boshqarish texnologiyalari shunday qudratga egaki, ular yordamida real hayot, tarixiy tajriba asosida to'plangan bilim yo'qqa chiqarilib, uni rejissyorlar tomonidan sun'iy shakllantirilgan bilimga almashtirib qo'yish mumkin. Shu yo'l bilan insonda "hayotning o'zi bir tomosha" degan fikr paydo qilinadi. Uningcha, "tomosha jamiyati"ni shakllantirish uchun madaniyatni tubdan o'zgartirish, hayot bilan tomosha o'rtasidagi chegarani ongli ravishda yo'qotish, tomoshaga xos xususiyatlarni hayotga joriy etish zarur.

XULOSA

Shunda odamlar "maroqli spektakl"dagi qiziqarli o'zgarishlarni nafasini ichiga yutib kuzatayotgan tomoshabinga aylanib qoladi. Rejissyor esa sahna ortidan turib, ommaviy tomoshani kishi bilmas tizginlar vositasida boshqarib turadi. Natijada odamlar real voqelikni idrok etish hissini yo'qotib, haqiqiy hayot qayerdayu, o'yin qayerda boshlanayotganini tushunolmay, garang bo'lib qoladi. Haqiqiy hayot bilan uning sun'iy inikosini bir-biridan ajrata olmay qolgan inson ongi falajlanadi. Eng yomoni, tomosha jamiyatida insonga barcha narsani o'ylamay-netmay qabul qilaveradigan passiv tomoshabin roli "ravo ko'riladi".

Shunday qilib, ularning maqsad-muddaolari shunda ayon bo'ladiki, insonlarning ongu tafakkurini chalg'itish yo'li bilan ularni ma'no-mazmunsiz hayotga yo'naltirishga harakat qiladilar. Shu bilan birga ular odamlarning inon-ixtiyorlarini o'ziga bo'ysundirish oqibatida – o'zlari xohlagan g'oya-mafkurasini singdirishga urinadilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., "Ўзбекистон". 1997.
2. Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. "O'zbekiston" НМИУ, 2011.
3. "Нақшбандия" журналы. №2 (7) 2011.
4. Кара-Мурза С. Манипуляция сознанием. М., "Алгоритм". 2006.
5. Йулдошев С., ва бошқалар. Янги ва энг Янги Давр Ғарбий Европа фалсафаси. – Т.: Шарқ, 2002. – 56 б.
6. Назаров Қ. Ғарб фалсафаси. – Т.: Шарқ, 2004. – 234 б.
7. Qakhorova, S. (2023). PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL TEACHING OF AMIR KHUSRAV DEHLAVI. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 17-17.
8. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. – Т: Шарқ, 2002. – 134 б.
9. Шодиев, Д. Д. (2023). INSON QADRI VA UNING MANFAATLARI HAMMA NARSADAN USTUN. *НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "MA'MUN SCIENCE"*, 1(2).
10. Jo'raqulovich, S. J. (2023). O'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. *SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY*, 2(13), 191-197.